

## VILYAM SHEKSPIR SHE'RIYATINING ADABIYOT DARSLARIDAGI TAHLILI

**Ahmedova Binafsha Saidovna,**

Buxoro shahar 6-IDUM

ona tili va adabiyot o'qituvchisi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada jahon shoirlarining, xususan, ingliz dramaturgiyasi qiroli Vilyam Shekspir sonetlarining tarjimasi, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritilgan. Adabiyot darslarida shoir ijodining serqirraligini ko'rsatishda asarlarning tarjimasi ham alohida ahamiyat kasb etishi asosli dalillangan.

*Kalit so'zlar:* badiiy asar, tahlil, matn tahlili, tarjima, sonet, she'riyat, Vilyam Shekspir, jahon adabiyoti.

Badiiy adabiyotda mavzular olami chegara bilmaydi. Tafakkur mahsuli bo'lgan badiiy adabiyot bashariyat farzandining tarbiyasi uchun, u qaysi millat va elat bo'lishidan qat'iy nazar, bir xil foydalidir. Jahon adabiyotining yetuk vakillari dunyoning qaysi bir burchagida yashashidan va ijodidan farqli o'laroq ularning ma'naviy merosi insoniyatning baxt-u saodati yo'lida bebaho xazina vazifasini o'taydi.

Mustaqillik yillarida ingliz adabiyotining buyuk namoyandasi Vilyam Shekspirning bir qator asarlari bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girildi. Ayniqsa, Shekspirning sonetlari<sup>1</sup> o'zbek kitobxonlari uchun ulkan xazina bo'ldi.

Ma'lumki, jahon tragediyanavisligining buyuklaridan biri sifatida e'tirof etilgan Vilyam Shekspir lirik asarlari bilan ham kitobxonlar qalbidan joy oldi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek kitobxoni Jamol Kamol tarjimalari orqali shoirning 154ga

<sup>1</sup> Вильям Шекспир. Сонетлар. Инглиз тилидан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тошкент. "Vektor-Press". 2009.175 бет.

yaqin sonetlari bilan yaqindan tanish. Sonet janrining dastlabki namunasi italyan adabiyotida paydo bo'lgan. Sonetning janriy belgi va xususiyatlari haqida nazariy adabiyotshunoslikda qator fikrlar mavjud. Sonetlarda fikr ixcham, tasvirning yig'iq, tiniqligi va shakliy jihatdan ma'lum bir qolip doirasida yaratilishi ahamiyatli hisoblanadi. Shekspir sonetlaridagi mavzular rang-barangligi Alisher Navoiy so'zlari bilan aytganda "bu olam sahnida gul ko'p, chaman ko'p", ya'ni har bir sonet mavzusi bir-birini takrorlamaydi va o'ziga xos fusunkor.

XVI asrda yashab ijod qilgan ingliz adibining asarlari u xoh katta, xoh kichik hajmda bo'lsin, ayniqsa, sonetlarining asosiy qismini ishq, sevgi, muhabbat mavzui tashkil etadi. Shoirning quyidagi misralari insonni hayratga soladi:

*Mendan qochib qayga borarding, jonim?*

*So 'nggi nafasgacha bo 'lurmiz birga.*

*Muhabbating ila kechar davronim,*

*Muhabbating ila o 'lurmiz birga (113-bet)*

Shekspir ayol qiyofasini tasvirlashda uning pokiza qalbini, musaffo orzu-istaklarini zavq bilan badiiy tasvirlaganki, u so'zsiz o'quvchining qalbini egallab, tafakkur olamini boyitishga xizmat qiladi. Muhabbat barcha dardlarga davo, u ba'zan egasiga zavq-shavq bag'ishlasa, ba'zan xanjardek qalblarni pora-pora qilib tashlaydi. Hatto achchiq narsalar muhabbat bois shirin bo'ladi. U behad nozik va goho toshdan ham qattiqdir. Ayol oilasi, umr yo'ldoshi va farzandlari uchun butun borlig'ini, hattoki, jonini berishga ham tayyordir. Muhabbatning kuch-quvvatini ishq dardiga muhtalo bo'lgan oshiq tushunadi. Oshiq o'z muhabbatini qo'ldan boy bermoqchi emas. Chunki ayol va muhabbat, ishq va oshiqlik, sevgi va sadoqat, mehr va oqibat, shijoat va jasorat kabi tushunchalarning ifodasi din, millat yoki irqni, shuningdek davlatlararo chegaralanish-u davrlararo uzoq yoki yaqinlikni talab qilmaydigan hodisadir.

Inson uchun yangi kun, yangi hayot, yangi orzu umidlar debochasidir. Go'yo inson endi hayotga qadam qo'ygandek, uni qalbini bebaho kechinmalar o'rab oladi. Hatto necha yillar davomida ko'rgan narsalar ham, yangi kunda, uning ko'zida

yangicha jilolanadi. Inson murakkab bir mavjudot, ba'zan kayfiyati a'lo, xursandchiligi cheksiz bo'lsa, u borliqdan zavq olib, atrofga yangicha nazar soladi. Xususan, qalbini muhabbat egallagan bo'lsa, undan-da ajoyib va g'aroyibdir, bu ilohiy tuyg'u. Vilyam Shekspirda bu jihat quyidagicha badiiy tasvirlagan:

*Har tongda yangidir eski quyosh ham,  
Mening muhabbatim quyoshga monand... (97 bet)*

Shekspir bu misralarda har kuni ko'rinib turadigan quyosh, muhabbat sharobidan mast bo'lgan oshiqqa yanada yorug'roq, yanada jozibaliroq ko'rinib, uning serjilo, ko'zni qamashtiruvchi va kuydiruvchi go'zalligini "muhabbatim quyoshga monand" deb, chiroyli tashbeh bilan badiiy tasvirlash orqali o'z istagini bayon etadi.

Kishilar hayotiga nazar solib, ba'zan hayratga qolasan. Kimdir bahorni sevib undan bahra olsa, kimdir bahordan nafratlanadi. Qaysi bir ijodkor kuzning xazonrezligini inson umrining nihoyasi bilan bog'lasa, qaysi biri undan go'zallik axtaradi. Kimdir qishning sovuqligini, hayotining omadsizlik daqiqalari bilan bog'lasa, boshqasi qishning oppoq qoridan bahra olib, go'zal hayoti, umrini shirin damlari bilan bog'laydi.

Vilyam Shekspirning sonetlarini mutolaa qilar ekansiz, ularda u yo bu maqsadda shoir yil fasllarini inson hayoti bilan bog'lab, tasvirlaganiga ham guvoh bo'lasiz. Hatto, ularning kayfiyatidagi tez-tez o'zgarishlar, samimiylik va sovuqqonligi ham, yil fasllari injiqliklariga o'xshatiladi. Ijodkor ma'shuqadan yiroqda bo'lgan oshiq ahvolini tasvirlar ekan, hayoti azob uqubatga aylanib, uni har tomonlama zulmat o'rab olganki, qishning "sovuq", "qahraton"iga tashbeh qilingan:

*Sendan ayru tushib, tegramda faqat,  
Ko'rganim qish bo'ldi, sovuq, qahraton.  
Qanday ayoz edi, qanchalar zulmat,  
Ship-shiydam dekabr yakka hukmron. (118-bet)*

Xulosa, qiladigan bo'lsak, Vilyam Shekspir ijodida birinchidan, tabiatdagi turli hodisa, voqealar lirik qahramonning ichki olami, tashqi qiyofasi va kayfiyati, bilan uzviylikda tasvirlangan. Ikkinchidan, ijodkorning diqqat markazida bo'lgan

ishq, sevgi, muhabbat mavzusi shoir she'riyatida juda go'zal tashbehlar orqali yanada o'ziga xos jozibadorlikka ega bo'lgan. Shoir sonetlarida pok ishq, pok muhabbat, sof sevgi va sadoqatni tarannum etgan. Chunki shular zamirida kelajak avlod dunyoga keladi, ulg'ayadi, barkamol shaxs bo'lib voyaga etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вильям Шекспир. Сонетлар. Инглиз тилидан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Тошкент. "Vektor-Press". 2009.175 бет.
2. 13. Вильям Шекспир. Сайланма. Уч жилдлик. Биринчи жилд. Қирол Лир. Ҳамлет (Дания шаҳзодаси) Макбет, Афиналик Тимон. Инглиз тилидан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси. Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти. 2007.615 б.
3. Bozorov Z.A. The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1
4. Bozorov Z.A. The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 455-458. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304. (2020).
5. Bozorov Zayniddin & Samandarova Gulnoz. (2020). Ideological movement of legends and traditions in the novel "Shaytanat" by Tohir Malik. Theoretical & Applied Science. 84. 1014-1016. 10.15863/TAS.2020.04.84.187.
6. Bozorova G. Concerning some pleonastic and tautological constructions //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
7. Bozorova G. Tautology and pleonasm: synchronic and diachronic views //Конференции. – 2021.
8. Bozorova G. Z. Oritqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida organilishi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 945-951.
9. Bozorova Gulmira Zayniddinovna. Distinctive features of pleonasms in political speech // International scientific-online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. [Vol. 2 No. 14 \(2023\)](#): - P. 168-174.

10. Kadyrovna A. M., Zayniddinova B. G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.

11. Samandarova G.Y. Socially conditioned meanings of paremas formed on the basis of the lexical spiritual group "insects". *Gospodarka i innowacje*. Volume: 22 | 2022. –P. 443-446.

12. Samandarova G.Y., Adizova N.I., Bozorova G.Z. Methods of Using Metaphorical, Pleonastic and Paremic Units in Uzbek Linguistics// *Resmilitaris*. [Vol. 13 No. 2 \(2023\): Volume 13, Number 2, 2023](#). –P. 5560-5572

13. Samandarova, G. Y. (2021). Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. *Current research journal of philological sciences*, 2(05), 39–42. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-11>

14. Samandarova Gulnoz Yarashovna, & Zaripova Nilufar Juma's daughter. (2023, April 1). Some characteristics of uzbek paremas' formed on the basis of the lexical sentence group "insect" in the form of a compound sentence. *International scientific conference " Innovative Trends In Science, Practice And Education"*, Munchen, (Germany). <https://doi.org/10.5281/zenodo.7816423>

15. Бозорова Г. З. Идеиная направленность сказаний и преданий романа "Шайтанат" Тахира Малика //Молодой ученый. – 2014. – №. 9. – С. 532-534.

16. Бозорова Г. Илмий нутқда учрайдиган айрим плеонастик бирликлар таҳлили //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 327-331.

17. Бозорова Г.З. ОАВда учрайдиган плеонастик бирликларнинг лингвопрагматик хусусиятлари // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oavda-uchraydigan-pleonastik-birliklarning-lingvopragmatik-hususiyatlari> (дата обращения: 10.04.2023).